№ 2-AMALIY MASHG‘ULOT



ONLAYN PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH.

Ishdan maqsad: Kasbga doir interaktiv infografika vositalarini yaratishni o’rganish.

Ishning nazariy qismi.

Infografika - bu ma'lum bir murakkablik va ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri va tezkor tarzda sintez qilishdan iborat bo'lgan matn, illyustratsiya va dizaynni birlashtirgan tushuntirishli rasm.

Ta'limda infografik elementlardan foydalanish uchun 7 ta sabab:

1. Infografika kasbga o‘rgatishda – ta'lim oluvchida tasavvurni rivojlantirishga va shakllantirishga yordam beradi;
2. Ta'lim jarayonining ko‘rgazmalilik darajasini orttiradi;
3. Ta'lim jarayonini vizuallashtirish orqali o‘zlashtirish darajasini orttirishga yordam beradi;
4. Kasbning ijtimoiy portretini aks ettirish orqali ta'lim oluvchida kasbni o‘rganishga motivatsiya uyg‘otadi;
5. Kasbning ijtimoiy-iqtisodiy portretini qurish orqali ta'lim oluvchida ertangi kunga ishonch orttirishga va kasbni yuqori cho‘qqilarini egallash uchun uzoq muddatli rejalar qurishga undaydi;
6. Kichik mutaxassislar tayyorlashda kasb mavqeyi haqidagi axborotni ta'lim oluvchiga to‘liq yetkazishga;
7. Infografika ta'lim berish jarayonida milliy istiqlol g‘oyasini yanada chuqur singdirish imkoniyatini beradi.

Ishning bajarilish tartibi:

1. https://infogram.com/ ga kiring.
2. Infografika yaratish uchun bo’sh shablon – “blank template” ni tanlang.
3. Mutaxasislik kasbingizga ko’ra biror turdagi infografikani yarating.

4. Bunda infogram onlayn servisi tomonidan taqdim etilayotgan uskunalar panelidagi Add text, Add chart, Add map, Add element, Add graphics, Add shape uskunalaridan foydalaning.

Kasbga doir infografikalar uchun namunalar:





Nazorat savollari:

1. Infografika nima?
2. Infografika qanday elementlardan tashkil topadi?
3. Kasbiy faoliyatda nima sababdan infografikadan foydalanish tavsiya etiladi?